

## CHEZ TILINI O'QITISHDA INTERAKTIV O'YINLARDAN FOYDALANISH

**Sherimbetova Zamira Orinbayevna**

*Qoraqalpoqiston Respublikasi Nukus shahri 1-sodda politexnikumi*

*Tillar kafedrasi Ingliz tili fan o'qituvchisi.*

**Usenbaeva Nurshat Djambil qizi**

*Qoraqalpoqiston Respublikasi Nukus shahri 1-sodda politexnikumi*

*Tillar kafedrasi Ingliz tili fan o'qituvchisi.*

**Seytnazarova Tumaris Yusup qizi**

*Qoraqalpoqiston Respublikasi Nukus shahri 1-sodda politexnikumi*

*Tillar kafedrasi Ingliz tili fan o'qituvchisi.*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada chet tilini o'qitishda interaktiv o'yinlardan foydalanishning ta'lim jarayonidagi ahamiyati va samaradorligi tahlil qilinadi. Interaktiv o'yinlar til o'rganish jarayonini qiziqarli va faol qiladi, o'quvchilarining til ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi. Maqolada o'yinlarning turli turlari, ularni o'qitishda qo'llash usullari hamda o'yinlar orqali til o'rganishning afzalliklari ko'rsatib o'tiladi.

**Kalit so'zlar:** interaktiv o'yinlar, chet tilini o'qitish, til ko'nikmalar, o'quvchilarining faol ishtiroki, didaktik metodlar, til o'rganish samaradorligi.

Bugungi kunda chet tillarini o'qitishda an'anaviy metodlardan tashqari interaktiv va kommunikativ yondashuvlar katta ahamiyatga ega. Til o'rganish jarayonida o'quvchilarining faolligi, motivatsiyasi va muloqotga tayyorligi muvaffaqiyatning asosiy omillari hisoblanadi. Shu sababli, interaktiv o'yinlar chet tilini o'qitishda keng qo'llanilmoqda. O'yin orqali o'quvchilar nafaqat nazariy bilimlarni egallashadi, balki amaliy ko'nikmalarni ham mustahkamlaydilar.

Zamonaviy ta'lim jarayoni o'quvchilarini nafaqat ma'lum bilim, ko'nikma va qobiliyatlar bilan tanishtirish, balki ularda ijobiyligini qadriyatlar shakllantirish jarayoni sifatida ko'rildi. Bu jarayonda o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar markaziy ahamiyatga ega bo'lib, o'quv faoliyati muvaffaqiyatli tashkil etilishida muhim rol o'ynaydi. Har qanday o'qitish metodikasi o'qituvchining yangi materialni tushuntirishdan iborat bo'lgan taqdimot ishlarini va talabalarning faolligini — o'rganish,

fikrlash, tahlil qilish va mustaqil xulosalar chiqarish qobiliyatlarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.

Boshqacha qilib aytganda, o‘qituvchi o‘quv materialini etkazishda faqat ma’lumot beruvchi sifatida emas, balki o‘quvchilarning fikrlash jarayonini rag‘batlantiruvchi ham bo‘lishi lozim. U o‘quvchilarga mustaqil fikr yuritishni, yangi bilimlarni tahlil qilishni, mantiqiy fikrlar asosida xulosalar chiqarishni o‘rgatishi kerak. Shu tarzda, o‘quvchilar faolligi va bilimlarni chuqur anglashlari ta’milanadi, bu esa ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

Interaktiv metodlar – bu o‘quvchilarning jamoa bo‘lib fikrlashini rag‘batlantiruvchi, o‘qituvchi bilan talaba o‘rtasida faol hamkorlikka asoslangan ta’lim metodlaridir. Ushbu yondashuv pedagogik jarayonda bevosita ta’sir ko‘rsatish vositasi sifatida qaraladi va ta’lim mazmunining ajralmas tarkibiy qismini tashkil etadi. Interaktiv metodlarning o‘ziga xos jihatlaridan biri shundaki, ular o‘quvchilarni faqatgina bilimni qabul qiluvchi emas, balki uni ishlab chiqishda ishtirok etuvchi subyektlar sifatida ko‘radi. Bu esa ta’lim jarayonini jonlantiradi, talabalarda o‘z fikrini erkin ifoda etish, muloqot qilish va muammolarni hal etishda faol ishtirok etish imkonini yaratadi.

Interaktiv ta’limning bosh maqsadi – o‘quv jarayonida barcha talabalarni faol ishtirokchi sifatida jalb etish, ular uchun qulay psixologik va tashkiliy muhit yaratishdir. Bu muhitda har bir ishtirokchi sodir bo‘layotgan voqealarni tushunadi, o‘zining fikr va g‘oyalari bilan boshqalarga ta’sir qiladi, jarayonga hissa qo‘sadi va o‘zaro hurmat hamda manfaatli hamkorlik muhitini shakllantiradi.

Zamonaviy interaktiv metodlar qatoriga rolli o‘yinlar, “aqliy hujum” (brainstorming), keyslar asosida tahlil qilish (case-study), taqdimotlar va guruqli muhokamalar kiradi. Bu metodlar talabalarda kommunikativ ko‘nikmalarni, tanqidiy va mantiqiy fikrlashni, tahlil qilish, sintezlash, solishtirish, umumlashtirish kabi ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Ayniqsa, ushbu yondashuvlar talabaning shaxsiy faolligini oshirish, bilimlarni ongli ravishda o‘zlashtirish hamda turli strategiyalarni amaliyotda qo’llash qobiliyatini mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi.

Interaktiv metodlar asosida qurilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarni faqat nazariy bilim bilan emas, balki amaliy mashqlar, ijodiy fikrlash va muammolarni mustaqil hal

qilish orqali rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, zamonaviy ta’lim talablari va kompetensiyalarga yo‘naltirilgan yondashuvlarga to‘liq mos keladi.

Interaktiv o‘yin – bu o‘quvchilarning til o‘rganishda faol ishtirokini ta’minlovchi, o‘yin shaklidagi faoliyatdir. U o‘quvchilarga stresssiz muhitda tilni o‘rganish va qo’llash imkonini beradi. O‘yin jarayonida nutq, tinglab tushunish, o‘qish va yozish ko‘nikmalari faol tarzda rivojlanadi. Bundan tashqari, o‘yinlar ijtimoiy ko‘nikmalarni, ya’ni jamoada ishslash, muloqot qilish va muloqot madaniyatini oshirishga ham xizmat qiladi.

Interaktiv usullar yordamida o‘quvchilar darsni faqat passiv ravishda qabul qiluvchi bo‘lib qolmay, balki faol ishtirokchilar sifatida o‘z fikrini bildirish, muloqot qilish va birgalikda muammolarni hal qilish imkoniga ega bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida til o‘rganishda natijadorlikni sezilarli darajada oshiradi. Masalan, o‘yinlar, guruh ishlari, interaktiv taqdimotlar, onlayn platformalar va audiomateriallardan foydalanish talabalarni o‘quv jarayoniga yanada qiziqtirib, bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi.

Interaktiv metodlar o‘quvchilarga o‘zlashtirishni faollashtirish, mustaqil fikrlash va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish imkonini yaratadi. Natijada, talabalar tilni o‘rganishda o‘zaro fikr almashish va bir-biridan o‘rganish orqali yanada samarali natijalarga erishadilar.

Xususan, interaktiv onlayn dasturlar, o‘yinlar, videotasvirlar va interaktiv qo’llanmalar yordamida til o‘rganish jarayonining qanchalik samarali va qulay bo‘lishi ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, interaktiv metodlar talabalarning ehtiyojlariga javob berishi, ularni amaliy ko‘nikmalarga yo‘naltirishi va o‘zlashtirishni yaxshilashdagi ahamiyati haqida tavsiyalar beriladi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, interaktiv metodlar til o‘rganishni nafaqat yanada samarali, balki qiziqarli va esda qolarli qiladi. Ular yordamida talabalar o‘z bilimlarini mustahkamlash bilan birga, muloqot va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini ham rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shu sababli, o‘qituvchilar va ta’lim muassasalari til o‘rgatishda interaktiv usullarni keng joriy etishlari muhim hisoblanadi.

Misol uchun:

Rol o‘yinlarida o‘quvchilar ma’lum bir vaziyatda muayyan rolda ishtirok etadilar. Masalan, restoranda buyurtma berish, do‘konda savdo qilish kabi kundalik vaziyatlarni o‘z ichiga oladi. Bu o‘yin nutq va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

So‘z o‘yinlari lug‘at boyligini oshirish uchun qulaydir. Masalan, “Scrabble”, “Crossword”, “Hangman” kabi o‘yinlar yangi so‘zlarni eslab qolish va qo‘llashga yordam beradi.

Viktorinalar orqali o‘quvchilar nazariy bilimlarini sinovdan o‘tkazadilar. Bu o‘yinlar bilimni mustahkamlash va takrorlash jarayonida qo‘llaniladi.

Jamoaviy o‘yinlar o‘quvchilarni guruhda ishlashga o‘rgatadi, hamkorlik va kommunikatsiyani rivojlantiradi. Masalan, “Pictionary” yoki “Taboo” kabi o‘yinlar o‘quvchilarni faol ravishda nutqga jalb qiladi.

Bundan tashqari, “Kahoot” – bu interaktiv va o‘yin asosidagi ta’lim platformasi bo‘lib, u maktablarda hamda boshqa turdagи ta’lim muassasalarida zamonaviy texnologik vosita sifatida keng qo‘llaniladi. Platformaning asosiy xususiyati – foydalanuvchi tomonidan yaratiladigan ko‘p variantli viktorinalardir, ular “kahoots” deb ataladi. Ushbu testlarga internet brauzeri yoki Kahoot ilovasi orqali ulanib qatnashish mumkin. O‘yin shaklidagi bu vosita ko‘pincha o‘quvchilarning bilim darajasini tekshirish, formativ baholash jarayonini tashkil etish yoki an’anaviy darslar orasida dam olish sifatida ishlataladi.

Kahoot o‘yinlarida o‘qituvchi savollarni doskada namoyish etadi, o‘quvchilar esa o‘z qurilmalarida to‘g‘ri javob variantini tanlaydilar. Bu platforma til o‘rganish jarayonida ayniqsa samarali bo‘lib, grammatikani mustahkamlash, so‘z boyligini kengaytirish va madaniy bilimlarni oshirishga xizmat qiladigan turli savollarni o‘z ichiga olishi mumkin. Bunday o‘yinlar sinfdagi o‘quv muhitini jonlantiradi, raqobatbardoshlikni kuchaytiradi va o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi.

Interaktiv o‘yinlarning til o‘rganishdagi afzalliklari quydagilardan iborat:

- Qiziqishni oshiradi: O‘yinlar o‘quvchilarda til o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyani oshiradi, darslarni qiziqarli qiladi.
- Amaliy ko‘nikmalarni shakllantiradi: Nazariy bilimlarni hayotiy vaziyatlarda qo‘llash imkonini yaratadi.

- Xatolikdan qo‘rmaslikni o‘rgatadi: O‘yinlar orqali o‘quvchilar xatolarini kamroq his qilib, tilni erkinroq o‘rganadilar.
- Faol muloqotni rag‘batlantiradi: O‘quvchilar bir-birlari bilan doimiy muloqotda bo‘ladilar, bu esa til ko‘nikmalarining mustahkamlanishiga xizmat qiladi.<sup>1</sup>

Xulosa qilib aytganda, interaktiv o‘yinlar chet tilini o‘qitishda samarali ta’lim vositasi hisoblanadi. Ular o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi, til ko‘nikmalarini mustahkamlaydi va o‘rganishni yanada samarali qiladi. O‘qituvchilar o‘yinlarni o‘quv jarayoniga maqsadli ravishda kiritish orqali til o‘rganish sifatini yaxshilashlari mumkin. Kelajakda interaktiv o‘yinlar bilan bog‘liq yangi metod va texnologiyalarni rivojlantirish til ta’limining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Сайдова, М. Р. Интерактивные методы в обучении иностранным языкам // Язык и культура. – 2021. – №2. – С. 112–116.
2. Тошпулатов, Б. Ш. Интерактивные технологии в современном языковом образовании // Молодой ученый. – 2020. – №12 (72). – С. 214–218.
3. Normurodova, N. Using interactive methods in teaching English // The Way of Science. – 2022. – №5 (99). – P. 134–137.

---

<sup>1</sup> Normurodova, N. Using interactive methods in teaching English // The Way of Science. – 2022. – №5 (99). – P. 134–137.